

## VIRTUAL MAKONDA SHARQONA ODOB: O‘QUVCHILARDA RAQAMLI MADANIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYALARI

**Nigina Ismatova Nuriddinovna**

*Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi*

*2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada virtual makonda sharqona odob-axloq tamoyillarini shakllantirish, o‘quvchilarda raqamli madaniyatni rivojlantirish hamda internet tarmog‘idan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muomala madaniyati, axborot xavfsizligi va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali strategiyalari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Raqamli madaniyat, virtual makon, sharqona odob, internet xavfsizligi, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoq, milliy qadriyat, o‘quvchi tarbiyasi, raqamli ta’lim.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda internet va axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, yoshlar va o‘quvchilar virtual makonda ko‘p vaqt o‘tkazmoqda. Bu esa ularda raqamli madaniyatni shakllantirish zaruratini kuchaytiradi. Virtual dunyoda inson nafaqat bilim oladi, balki o‘zgalar bilan muloqot qilib, ular bilan o‘zaro fikr almasha oladi. Chunki inson butun umri davomida bilim olish, izlanish va o‘z ustida ishlash orqali o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, yangi marralarni zabt etadi hamda jamiyatda munosib o‘rin egallaydi. Ayniqsa, yosh avlodni ilm-ma’rifatli, zamonaviy fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli etib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Har qanday shaxs hayotda muayyan maqsad va yuksak marralarga erishishni istasa, eng zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi shart. Inson butun umri davomida bilimlarga intilib yashash orqali o‘z salohiyatini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarish, yangi sohalarni o‘zlashtirish, yangi marralarni zabt etish va pirovard natijada moddiy farovonligini ta’minlash imkoniga ega bo‘ladi. Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqat ilm-ma’rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Bu — bugungi zamon talabi. Zotan, ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda farzandlarimizga berayotgan ta’lim-tarbiyamizning sifati bilan chambarchas bog‘liqdir<sup>46</sup>.

Sharq xalqlari pedagogikasida muloqot va nutq odobi komil insonni belgilovchi eng oliy mezon hisoblangan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy kabi

<sup>46</sup> Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. T., “O‘zbekiston”, 2024, 133 bet

allomalarimiz o‘z asarlarida so‘zlashish san’ati, suhbatdoshga hurmat va shaxs qadriyatini e‘zozlash masalalarini tizimli yoritganlar. Tarbiya masalasiga ham alohida e‘tibor qaratganlar.

Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahll maraziga (dard, illat) «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqi ko‘m» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmag‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur<sup>47</sup>.

Bugungi kunda bizning hayotimizda internet va texnologiyalar orqali yaratilgan raqamli mulqot ya‘ni virtual olam shiddat bilan kirib kelmoqda. Biz bundan to‘g‘ri, xavfsiz va odobli foydalanishimiz hamda yosh avlodni ham shunday tarbiyalashimiz shart va zarur. Chunki har bir insonda bugungi kun tili bilan aytganda, raqamli madaniyat shakllangan bo‘lishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, biz o‘qituvchilarning asosiy vazifamiz Sharqona odobni virtual makonga integratsiya qilgan holda, o‘quvchida internetda ham o‘zini go‘yoki real hayotda kattalarning qarshisida turgandek his qilish, yozayotgan har bir so‘zining mas‘uliyatini anglash tuyg‘usini tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabda raqamli madaniyatni shunchaki quruq ma‘ruzalar bilan shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun darslarda va sinfdan tashqari tadbirlarda interaktiv metodik strategiyalarni qo‘llash lozim:

### **1. “Virtual odob saltanati” loyihaviy-interaktiv metodi.**

Sinf doskasiga katta oq qog‘oz markaziga “Virtual odob saltanati” deb yozib qo‘yiladi. Dastlab bu xarita butunlay bo‘sh bo‘lib, u o‘quvchilar tomonidan raqamli odob-axloq qoidalari bilan to‘ldiriladi. O‘quvchilar 3 ta kichik guruhga ajratiladi va ularga rangli yopishtiriladigan qog‘ozchalar tarqatiladi. Guruhlarga: “Internet makonida madaniyatli, andishali va xavfsiz bo‘lish uchun nima qilish kerak?” degan umumiy muammoli savol tashlanadi. (Guruh savollari har xil bo‘lishi ham mumkin). O‘quvchilar guruh ichida o‘zaro fikr almashib, eng muhim va hayotiy deb hisoblagan 3 ta oltin qoidani yozadilar. Har bir guruhdan bittadan vakil chiqib, o‘z jamoasi ishlab chiqqan virtual odob me‘yorlarini “Virtual odob saltanati” xaritasiga yopishtiradi va nima uchun aynan shu qoida tarmoq madaniyati uchun muhimligini bir jumla bilan mantiqiy asoslab beradi.

### **2. “Andisha ko‘zgusi” vaziyatli tahlil metodi.**

<sup>47</sup> Avloniy, Abdulla Turkiy Guliston yoxud axloq - Toshkent: Dunyo nashr, 2025. - 5 bet

Muammoli topshiriq:Telegram guruhida sinfdoshlardan biri o‘zining ijodiy loyihasini taqdim etadi. Boshqa bir o‘quvchi esa hamma o‘qiydigan umumiy guruhda uning ustidan kulib, haqoratli izoh qoldiradi va natijada keskin nizo kelib chiqadi. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, vaziyatni tahlil qiladilar. Ularga: “Agar siz guruh admini yoki shu vaziyatning ishtirokchisi bo‘lsangiz, ushbu nizoni sharqona odob doirasida va raqamli madaniyat qoidalariga ko‘ra qanday bartaraf etgan bo‘lardingiz?” degan savol tashlanadi. O‘quvchilar bu vaziyatni guruh bilan tahlil qilib bo‘lganlaridan so‘ng, har bir guruhdan bir o‘quvchi umumiy xulosalab, yakuniy fikrni aytadi.

### **3.“Raqamli va’da” refleksiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash metodi.**

Mashg‘ulot so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilarga murojaat qilib, internet olamida xavfsiz va odobli muhitni yaratish har bir insonning o‘zidan boshlanishini ta’kidlab, o‘quvchilarning har biriga kichik, chiroyli stikerlar (yopishtiriladigan qog‘oz) tarqatadi. Har bir o‘quvchi tarmoqdagi o‘z xulq-atvorini chuqur tahlil qilgan holda, stikerga “Men bugundan boshlab internetda...” yoki “Men va’da beraman” deb boshlanuvchi shaxsiy va’dasini mustaqil ravishda yozadi. Masalan: Men bugundan boshlab internetda hech kimga haqoratli izoh yozmayman. Yozilgan stikerlar sinf doskasidagi maxsus tayyorlangan “Odoblilar mamlakati” maketiga ramziy ravishda yopishtiriladi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z va’dalari guruh oldidagi ijtimoiy majburiyat ekanligini his qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, virtual makonda sharqona odob tamoyillarini qaror toptirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti yoshlar hayotida katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ma’naviy tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli o‘quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirish, internetdan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga sodiqlik, ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash juda muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston.T. “O‘zbekiston”-2024.
2. Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston yoxud axloq - Toshkent: Dunyo nashr, 2025.
3. Kaykovus. Qobusnoma. (Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov, U. Dolimov). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.